1-qism: Har bir topshiriq 1,3 balldan baholanadi

1. Angliyada qaysi qirol davrida burjua inqilobi boshlangan?
A) Karl I B) Yakov II
C) Karl II D) Yakov I

2. Metallarga ishlov berish sohasida kishini lol qoldirish natijalariga erishgan xalqni aniqlang.
A) xitoy B) hind
C) fors D) yunon

3. Qaysi me'moriy obidada Qur'onni qo'yish uchun o'rnatilgan ulkan tosh lavh mavjud?
A) Bibixonim jome masjidida
B) Go'ri Amirda
C) Sherdor madrasasida
D) Shohizindada

4. Qaysi davlat 1958-yilda sanoat mahsulotlarining umumiy hajmi bo'yicha Lotin Amerikasida birinchi o'ringa chiqdi?
A) Chili B) Braziliya
C) Kuba D) Meksika

5. Qachon Turkistonda paxtaga o'zgarmas davlat narxlari joriy etildi?
A) 1914-yil B) 1915-yil
C) 1910-yil D) 1906-yil

6. Buxoro xonligi davlat boshqaruvida amirlar amiriga aylangan mansabni aniqlang.
A) saroy qutvoli B) devonbegi
C) amin D) otaliq

7. O'rta asrlar Yevropada daryo sohillari bo'ylarida, ko'priklar yonida barpo qilingan shaharlarni aniqlang.
A) Myunster, Sen-Gallen
B) Bremen, Bryugge
C) Padeborn, Gamburg
D) Starsburg, Augsburg

8. Dastlab masjid vazifasini bajargan tarixiy inshootni aniqlang.
A) Tosh madrasa
B) Baroqxon madrasasi
C) Qoraqum Eshon madrasasi
D) Ko'kaldosh madrasasi

9. "G'aroyib bolalar" romani muallifini toping.
A) Alvaro Yunke B) Yasusi Inoue
C) Aziz Nesin D) Zarif Sulton

10. O'zbek ziyolilarining oqlanishida tashabbuskorlik ko'rsatish, paxta narxini oshirishni markaz oldiga qo'yish kabi ishlarni kim amalga oshirgan?
A) Sobir Kamolov
B) Nuriddin Muhitdinov
C) Amin Niyozov
D) Rafiq Nishonov

2-qism: Har bir topshiriq 2,4 balldan baholanadi

11. Qaysi davlatda 1909-1911-yillardagi qo'zg'olonda xalqning barcha tabaqalari ishtirok etgan edi?
A) Serbiya B) Bolgariya
C) Gretsiya D) Albaniya

12. 1913-yilning yanvarida Turkiya hokimiyati kimlarning qo'liga o'tdi?
A) "Yosh turklar"
B) "Ittihodi Muhammadi"
C) "Hurriyat va Birdamlik"
D) "Yangi Usmonlilar harakati"

13. Ko'chmanchi sak va massaget chorvadorlari hayvon terisidan poyabzal, kiyimlar va chodirlar tikib nimaga ayirboshlaganlar?
A) oltin va kumush
B) tuya va otga
C) g'alla va mevaga
D) hunarmandchilik buyumlariga

14. 1980-yil oxirida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy inqiroz avj olgan davlat tarixi bilan bog'liq bo'lgan voqeani aniqlang.
A) Navbatdan tashqari saylovlarda Lex Valensa g'alaba qozondi
B) Kuchli mafkuraviy bosimga qaramasdan so'llar Litvada hokimiyatga keldi
C) Moskvada ikki nemis davlatini birlashtirish bo'yicha shartnoma imzolandi
D) Yirik qo'zg'olonlar natijasida ikki mingdan ortiq kishi halok bo'ladi

15. Hokimiyatda ko'pchiligi G'arb mamlakatlarida ta'lim olgan "yangi demokratlar" kelgan davlat tarixida sodir bo'lgan inqilobni aniqlang.
A) Lola inqilobi B) Atirgullar inqilobi
C) Aprel inqilobi D) Oq inqilob

16. Kimning hukmronligi davrida Angliyada gunohkor hisoblangan baronlarning mulklari tortib olingan, vassallardan katta to'lovlar talab etgan?
A) Garold B) Ioann
C) Genrix II D) Genrix VII Tyudor

17. Yevropa hukmdorlaridan kim birinchi bo‘lib katta yer-mulklarga egalik qilayotgan cherkovdan soliq talab qiladi?
A) Lyudovik IX B) Eduard III
C) Filipp IV D) Karl V

18. Avstriya-Vengriya imperiyasi tarkibidagi qaysi hudud doimo harbiy yoki favqulodda holatda tutilgan edi?
A) Slovakiya B) Chexiya
C) Moraviya D) Xorvatiya

19. “Tirik mavjudot a’zolari haqida” nomli asar muallifiga tegishli bo‘lgan ta’rifni toping.
A) Ustozidan mantiq, falasafa,riyoziyot va fiqh ilmlarini o‘rgangan
B) Yer aylanasi uzunligini o‘lchashda yangi usul – matematik usulni ishlab chiqdi
C) Abu Bakr ar-Roziyning asarlarini puxta o‘rganadi
D) O‘rta asrlarda mukammal hisoblangan ilmlar tasnifini yaratadi

20. Quyidagi hududlardan qaysi biri XIX asr o‘rtalarida Buxoro amirligi tarkibiga kirmagan?
A) Pishpak B) Sherobod
C) Qarshi D) G‘uzor

21. Rossiyaning Buxoro orqali Afg‘onistonga chiqargan mahsulotlari to‘g‘ri berilgan javobni aniqlang.
1. chinni buyumlar; 2. gugurt; 3. zargarlik buyumlari; 4. sopol idishlar; 5. baxmal
A) 3, 4, 5 B) 1, 2, 3
C) 1, 2, 5 D) 1, 2, 3, 4, 5

22. Afg‘onistonda Muhammad Zohirshoh davrida kimlar bilan hamkorlikda korxonalar qurildi?
A) Ingilizlar, ruslar, xitoyliklar
B) Nemislar, yaponlar, hindlar
C) Fransuzlar, koreyslar, eronliklar
D) Italiyaliklar, ispanlar, portugallar

23. Mustamlakachi hukumatga qarshi ko‘tarilgan qaysi qo‘zg‘olondan so‘ng, har qanday norozilik ko‘rinishidagi harakatlarni ayovsiz bostirishga kirishildi?
A) Toshkentdagi “Vabo isyoni”
B) Andijon qo‘zg‘oloni
C) Jizzax qo‘zg‘oloni
D) “Tosh otar voqeasi”

24. Birinchi bo‘lib MTS-Mobile telefon sistem - ommaviy uyali telefon aloqasini taklif etgan davlatni aniqlang.
A) Rossiya B) AQSH
C) Buyuk Britaniya D) Shvetsiya

25. XX asrning so‘nggi 50 yil ichidagi qilingan eng mashxur ixtironi toping.
A) ARPANET B) MTS
C) Integral mikrosxemalar D) E-mail

3-qism: Har bir topshiriq 3,4 balldan baholanadi

26. Mikrobiologiya fanining asoschisi faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan ta’rifni toping.
A) Ilmiy izlanishlari immunitet haqidagi fanning yaratilishi uchun asos bo‘ldi
B) Har xil buyum, narsalarda turlicha o‘tuvchi ko‘rinmas nurlarni kashf etdi
C) Organizmlarni mikroblardan himoya qilish haqida yangi ta’limotni yaratdi
D) Elektrolitik dissotsiatsiyalanish nazariyasini yaratdi

27. Ayrim sobiq respublikalar qatorida sovetlarni aybi uchun zamonaviy Rossiyani ayblamagan davlatni toping.
A) Gruziya B) Latviya
C) Litva D) Armaniston

28. XIX asrning oxiri - XX asr boshlarida qaysi hududda g‘alla ekiladigan va yaylov sifatida foydalaniladigan yerlarga paxta ekilishi natijasida g‘alla va chorva mahsulotlarini chetdan olib kelish ayniqsa kuchaygan edi?
A) Qashqadaryo vohasida
B) Farg‘ona vodiysida
C) Toshkent vohasida
D) Zarafshon vodiyida

29. “O‘zbekiston Uchinchi renessans-Uyg‘onish davrini boshlanishi”ga poydevor bo‘lgan tarixiy voqeani aniqlang.
A) Harbiy ta’lim-tarbiya beradigan kursantlar maktablariga “Temurbeklar maktabi” nomi berilishi
B) Prezident maktablarini tashkil etilishi
C) “5 ta muhim tashabbus”ni ilgari surilishi
D) Yurtimizda buyuk alloma Muhammad al-Xorazmiy nomidagi “Yosh matematiklar” xalqaro olimpiadasini o‘tkazilishi

30. Qaysi voqeadan so‘ng knyaz Vladimir Dunay bo‘ylarida yashagan bulg‘orlarga qarshi harbiy yurish uyushtiradi?

A) elchilarning qatl qilingani va asirga olingani uchun
B) slavyanlarni yangi yerlarga ko‘chib o‘tishiga ruxsat bermaganligi uchun
C) slavyan qabilalarining isyonini bostirib, Kiyev Rusi chegaralarida yangi mudofaa qal’alarini qurdirganidan so‘ng
D) xristian dinini qabul qilishga noroziligi uchun

31. Baqtriya la’lidan tayyorlangan mahsulotlar qaysi davlatlarga sotilgan?
1. Misr 2. Hindiston 3. Mesopotamiya 4. Xitoy 5. Eron 6. Yunoniston
A) 1, 2, 5 B) 1, 2, 3
C) 1, 2, 4 D) 4, 5, 6

32. Misr, Yunoniston va Qadimgi Rimda yaratilgan noyob san’at durdonlarining asl nusxalari qaysi muzeyda saqlanmoqda?
A) Sankt-Peterburgdagi Ermitaj muzeyida
B) Londondagi Britaniya muzeyida
C) Italiyadagi Uffitsa muzeyida
D) Parijdagi Luvr muzeyida

33. Italiya qaysi davlat bilan keskin munosabatlarni bartaraf etishga erishdi va 1902-yilda ushbu davlat bilan bitim imzoladi?
A) Turkiya B) Buyuk Britaniya
C) Germaniya D) Fransiya

34. Kimning hukmdorligi davrida Rossiya hukumati tomonidan Qo‘qon elchilarini Orenburgdan nariga o‘tkazmaslik haqida ko‘rsatma berildi?
A) Umarxon B) Madalixon
C) Olimxon D) Norbo‘tabiy

35. II jahon urushi yillarida O’zbekistonda barpo etilgan suv omborlarini aniqlang.
1) Kosonsoy; 2) Andijon; 3) Rudasoy; 4) Tuyamo‘yin; 5) Chortoq.
A) 1, 3 B) 2, 5
C) 1, 4 D) 3, 4

36. Boltiqbo‘yi davlatlari tarixi bilan bog‘liq bo‘lgan xato javobni toping.
A) Latviyada ishsizlikning yuqori darajasi tufayli aholi ish izlab ommaviy ravishda G‘arb mamlakatlariga ketishga majbur bo‘lmoqda
B) 2008-yili Litvada ishsizlarning soni 20% dan oshdi
C) 2011-yil rusiyzabon aholi vakillari bilan eston politsiyasi o‘rtasida to‘qnashuv bo‘lib o‘tdi
D) Boltiqbo‘yi mamlakatlari Yevroittifoqqa integratsiyalashuv yo‘lidan ketmoqda

37. AQSH Prezidenti V. Vilson boshqaruvi davrida saylov tizimida o‘tkazilgan islohot to‘g‘ri berilgan javobni aniqlang.
A) Prezidentlikka nomzodlar endilikda o‘zlari tanlagan shtatlar saylovchilari tomonidan saylanish tartibi kiritildi.
B) Xalqning ovoz berishi bilan saylanadigan senatorlar endi ayrim shtatlarning qonun chiqaruvchi organlari tomonidan saylanadigan bo‘ldi.
C) Ayrim shtatlarning qonun chiqaruvchi organlari tomonidan saylanadigan senatorlar endi xalqning ovoz berishi bilan saylanadigan bo‘ldi.
D) Prezident saylovlari endilikda AQSHning barcha shtatlarida saylovchilarning o‘zaro teng, yashirin ovoz berish yo‘li bilan saylash tartibi joriy etildi.

38. O‘zbekistonda “O‘zbekiston havo yo‘llari“ aviakompaniyasi zamonaviy havo kemalari bilan ta’minlangan yilida ...
A) Chevrolet Spark ishlab chiqarilgan
B) Chevrolet Cobalt ishlab chiqarilgan
C) Lasetti II (Gentra) ishlab chiqarilgan
D) Chevrolet Orlando ishlab chiqarilgan

39. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida oddiy loydan go‘zal san’at asarlari yaratish va tabiatdagi turli giyoh va o‘simliklardan betakror ranglar kashf etish mumkinligini amalda isbotlagan kulollarni aniqlang.
A) Nurmuhammad, Abdulla
B) Odina Muhammad Murod, Obloqul
C) Shirin Murodov, Ibrohim Hofizov
D) Mo‘minjon Sohibov, Abdujabbor

40. Buxoro amirligida kimning hukmronligi davrida harbiy harakatlar uchun qoracherikka safarbarlik va yer solig‘ining muddatidan oldin yig‘ib olinishi tufayli Miyonqolda qo‘zg‘olon ko‘tariladi?
A) Muhammad Rahim
B) Amir Haydar
C) Amir Nasrullo
D) Amir Muzaffar